

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim  
yo‘nalishining malaka talablari*

Chirchiq — 2023

*Y3P OYMTB*

*Бўлум № 361*

*11.08.2023 й.*

**ISHLAB CHIQILGAN:**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil «21» 08 dagi 364-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralar (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi</i> .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi</i> .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i> .....	4
1.2.1.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari</i> .....	4
1.2.2.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari</i> .....	4
1.2.3.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining turlari</i> .....	5
1.2.4.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifaları</i> .....	5
2.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar</i> .....	6
2.1.	Umumi kompetensiyalar .....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar .....	6
2.3	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya .....	8
2.3.2.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha saatlar va kreditlar</i> .....	9
2.3.3.	<i>61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi</i> .....	9
	Bibliografik ma'lumotlar .....	10
	Kelishuv varag'i .....	11

## **1. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nališining tavsifi**

**61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nališ bo'yicha malaka talabi, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nališining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatlari davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituryentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

**61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)** – Xizmat ko'rsatish sohasiga oid yo'nališ bo'lib, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, sport turlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish, muktabgacha, umumiyo o'rta, professional ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazish, sport turlariga oid harakatlarga o'rgatish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid vositalar, tamoyillarni qo'llash, harakatlarga o'rgatish, yosh davrlariga nisbatan vosita va uslublarni tanlash, jismoniy yuklamalarni miqdor va sifat jihatdan boshqarish va individuallashtirish, jismoniy mashg'ulotlarni rejalashtirish, nazorat va tahlil qilib borish, sport faoliyatining asosiy tamonlarini boshqarish, sport sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

*Yo'nališ bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamонавији yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiggan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**1.2.2. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

– muktabgacha ta'lim, umumiyo o'rta ta'lim, professional ta'lim muassasalari hamda ulardagagi o'quv jarayonlari;

- sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarigi sport mashg'ulotlari jarayoni;
- sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarini tashkil etish vosita va usullari;
- sport jamoalari, sport klublari, ishlab chiqarish korxonalar;
- sport musobaqalari.

*Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilar talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'naliши bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari xizmatlar sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'naliшини tamomlagandan so'ng maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va professional ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida parasport turlari bo'yicha sport mashg'ulotlari olib borish, sport jamoalari, sport klublari, sport musobaqalari, ishlab chiqarish korxonalarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

#### **1.2.3. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'naliши bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- sport va jismoniy tarbiya;
- pedagogik (umumiy o'rta va professional ta'lim tizimida);
- ilmiy-tadqiqot;
- foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish;
- sog'lomlashtirish va tiklash;
- tashkiliy-boshqaruv.

*Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilar talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

Ta'lim yo'naliши bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

#### **1.2.4. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'naliши bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

**61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)** ta'lim yo'naliши bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va professional ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;
- sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlaridagi sport mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish;
- sport maktablari, ixtisoslashgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda sport turlari bo'yicha federatsiyalarda tashkiliy-uslubiy faoliyat olib borish;
- sport jamoalari, sport klublarida sport mashg'ulotlarini olib borish va sport musobaqalarini tashkil etish;
- ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish;
- ta'lim yo'naliши bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalavriat yo'naliши doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

– kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

#### **Sport va jismoniy tarbiya faoliyatida:**

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;
- sport mashg'uloti nazariyasining paydo bo'lish va shakllanish evolyusiyasini, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslarini hamda mashg'ulot texnologiyasini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning sanitariya-gigiyenik asoslarini tushunish;
- bolalar va yoshlarda tanlangan sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasini shakllantira olish, shug'ullanuvchilarda halol sport raqobatining ahloqiy tamoyillarini tarbiyalay olish;
- muktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va professional ta'lim muassasalarida "Jismoniy tarbiya va sport"ga oid fanlardan o'rnatilgan tartibda dars berish;
- tanlangan sport turida individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha zamonaviy metodikalarni qo'llagan holda sport orientatsiyasi va saralash tizimini amalgalash oshira olish;
- bolalar va o'smirlar sporti sohasida va ommaviy razryadlar sportchilar bilan ishlash bo'yicha aniq mashg'ulotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan va tezkor reja hamda dasturlarni ishlab chiqsa olish;
- tanlangan sport turi bo'yicha bolalar va o'smirlar sportida ommaviy razryadlar sportchilar bilan mustaqil ravishda sport mashg'ulotiarini olib borish;
- mashg'ulotlarni olib borishda xavfsizlik texnikasini ta'minlay olish;
- tanlangan sport turi uchun dolzarb hisoblangan pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llay olish;
- rejaviy va hisobot hujjalarni tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim*.

#### **Umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida:**

- muktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, professional ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv faniari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;
- ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjalarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jahbalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlash;
- Jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy tekshirishlar bo'yicha namunaviy usullarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish;
- respublika va xorijda chop etilgan jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish; ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

- aprobatsiyadan o'tgan usullarni qo'llagan holda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning turli jihatlarining samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazish;
- matematik-statistika usullari, axborot texnologiyalari yordamida tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalana olish, urumlashtirish va xulosalarni shakllantira olish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingen ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtiroy etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyatga tatbiq etishda qatnashish;
- internet tarmog'ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliqa mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak*.

**2. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrasharlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlarni qo'llash;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;
- sport mashg'uloti nazariyasining paydo bo'lish va shakllanish evolyusiyasini, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslarini hamda mashg'ulot texnologiyasini, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning sanitariya-gigiyenik asoslarini tushunish;
- bolalar va yoshiarda tanlangan sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasini shakllantira olish, shug'ullanuvchilarda halol sport raqobatining ahloqiy tamoyillarini tarbiyalay olish;
- tanlangan sport turida individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha zamonaviy metodikalarni qo'llagan holda sport orientatsiyasi va saralashi tizimini amalga oshira olish;
- bolalar va o'smirlar sporti sohasida ommaviy razryadlar sportchilar bilan ishslash bo'yicha aniq mashg'ulotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan va tezkor reja hamda dasturlarni ishlab chiqsa olish;
- tanlangan sport turi uchun dolzarb hisoblangan pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish vositalari va usullarini qo'llay olish;

- rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish qobiliyati;
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari hujjatlarini amaliy qo'llay olish;
- quyi tarkibiy bo'limlarda tezkor ish rejalarini tuzish va ularning bajarilishini ta'minlay olish;
- innovatsion g'oyalardan foydalanishga tayyor bo'lish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy** va **Tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

o'quv-tanishuv amaliyoti – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot – pedagogik soha bo'yicha olingen bilimlarini amaliyotda sinash orqali amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga va mahoratni oshirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti – jismoniy tarbiya va sport faoliyati bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya:**

- tanlangan sport turi bo'yicha trener;
- jismoniy tarbiya o'qituvchisi;
- jismoniy tarbiya va sport bo'yicha yo'riqchi-uslubchi.

#### **2.3.2. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4980	166
Tanlov fanlar	840	28
Malakoviy amaliyot	1260	42
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

**2.3.3. 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lif yo'naliishi  
bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4980	166	
1.01	382JTOH2301	Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi	120	4	1
1.02	382SXRT2302	Sportda xorijiy til	120	4	1
1.03	382O'ZRT2303	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.04	382O'EYT2304	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.05	382ANAT2305	Anatomiya	120	4	1
1.06	382STOM2306	Sport turlarini o'rgatish metodikasi (yengil atletika, gimnastika)	120	4	1
1.07	382O'TSQ2307	O'zbek tilining sohada qo'llanilishi	120	4	2
1.08	382DNSH2308	Dinshunoslik	120	4	2
1.09	382BXSB2309	Bioximiya va sport bioximiysi	120	4	2
1.10	382STOM2310	Sport turlarini o'rgatish metodikasi (basketbol, suzish)	120	4	2
1.11	382STOM2311	Sport turlarini o'rgatish metodikasi (voleybol, gandbol)	120	4	3
1.12	382FALS2312	Falsafa	120	4	3
1.13	382JTSP2313	Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi	120	4	3
1.14	382SBIO2314	Sport biomexanikasi	120	4	3
1.15	382FSPF2315	Fiziologiya va sport fiziologiyasi (1-qism)	120	4	3
1.16	382FSPF2316	Fiziologiya va sport fiziologiyasi (2-qism)	120	4	4
1.17	382MHOM2317	Milliy va harakatli o'yinlarni o'rgatish metodikasi	120	4	4
1.18	382JNU2318	Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (1-qism)	120	4	4
1.19	382JNU2319	Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati (2-qism)	120	4	5
1.20	382SMNA2320	Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari	120	4	6
1.21	382PSPS2321	Psixologiya va sport psixologiyasi (1-qism)	120	4	5
1.22	382PSPS2322	Psixologiya va sport psixologiyasi (2-qism)	120	4	6
1.23	382S PTR2323	Sport tibbiyoti va reabilitologiya (1-qism)	120	4	5
1.24	382S PTR2324	Sport tibbiyoti va reabilitologiya (2-qism)	120	4	6

1.25	382BTBM2325	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (1-qism)	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
1.26	382BTBM2326	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (2-qism)	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>2</b>
1.27	382O'MBM2327	O'quv-mashq bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (1-qism)	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>3</b>
1.28	382O'MBM2328	O'quv-mashq bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (2-qism)	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>4</b>
1.29	382SMTB2329	Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (1-qism)	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>5</b>
1.30	382SMTB2330	Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha) (2-qism)	<b>120</b>	<b>4</b>	<b>6</b>
1.31	382OSMB2331	Oliy sport mahorati bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish (sport turlari bo'yicha)	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>8</b>
1.32	382TSTM2332	Tanlangan sport turi bo'yicha mutaxassislikka kirish	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>2</b>
1.33	382TSTN2333	Tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati (1-qism)	<b>120</b>	<b>4</b>	<b>3</b>
1.34	382TSTN2334	Tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati (2-qism)	<b>120</b>	<b>4</b>	<b>4</b>
1.35	382TSTR2335	Tanlangan sport turida rejalshtirish va hakamlik faoliyati (1-qism)	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>5</b>
1.36	382TSTR2336	Tanlangan sport turida rejalshtirish va hakamlik faoliyati (2-qism)	<b>120</b>	<b>4</b>	<b>6</b>
1.37	382TSTI2337	Tanlangan sport turida ilmiy-uslubiy faoliyat	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>8</b>
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>840</b>	<b>28</b>	<b>4,5,6,8</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	<i>840</i>	<i>28</i>	<i>4,5,6,8</i>
		<b>Jami</b>	<b>5820</b>	<b>194</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>1260</b>	<b>42</b>	<b>2,4,6,7</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>120</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>1380</b>	<b>46</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlar, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslari, sport mashg'uloti nazariyasi, sanitariya-gigiyenik asoslar, sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasi, individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlari, ommaviy razryadli sportchilar bilan ishlash, bolalar va o'smirlar sporti, sport orientatsiyasi va saralashni tizimi, pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqlari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari, xavfsizlik texnikasi, innovatsion g'oyalar, sportchi, jamoa, sport klubи yoki tashkilotiga psixologik yordam, yosh toifasi, rivojlanish bosqichlari, sport-sog'lomlashtirish tizimi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilar

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti



Rektori

M. Bojtabayev


2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va  
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor



Sh. Yakubov

2023-yil « 21 » 08

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati  
va sport vazirligi

Vazir o'rmosari

D. Raximova

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

O'zbekiston Milliy Olimpiya  
Qo'mitasi

Bosh lotib



O. Kasimov

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

Respublika Olimpiya va paralimpiya  
sport turlagi, idoralar va shak markazi

Direktor

A. Mumadaliev

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

Urganch davlat universiteti



B. Abdullayev

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti**  
**61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka**  
**talablari va o'quv rejasiining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif muassasalari va**  
**asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Chirchiq sh.

2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vaziri o'rinosi D. Raximova, O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi Bosh kotibi O. Kasimov, Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori A. Mamadaliyev, Urganch davlat universiteti rektori B. Abdullayev va O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori M. Boltabayev birgalikda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'naliishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolainomani tuzdik:

61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lif yo'naliishi malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sen farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-sen, 2017-yil 27-iyulda "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sen, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sen, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "2019/2020- o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359-sen Qarorlariga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Bakalavriat ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati  
va sport vaziri o'rinosi**

D. Raximova

**O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi  
bosh kotibi**

O. Kasimov

**Urganch davlat universiteti  
rektori**

B. Abdullayev

**Respublika Olimpiya va paralimpiya sport  
turlariga tayyorlash markazi direktori**

A. Mamadaliyev

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
universiteti rektori**

M. Boltabayev